QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 30-aprel | 133-4-60-Q/25 | Koson tuman hokimligi

Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 1-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o’rta biznesning iqtisodiyotdagi o’rnini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-50-sonli Farmoni ijrosi haqida”gi 149-4-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Qashqadaryo viloyati hokimining 2025-yil 1-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-50-sonli Farmoni haqida”gi 149-4-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1.Viloyat hokimining 2025-yil 1-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 50-son farmoni ijrosi haqidagi 149-4-0- Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu farmoni bilan:

1-bandiga ko‘ra,

I.Asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari,

II. 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari

etib quyidagilar belgilanganligi:

a) kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda - 34 foizga, eksportda - 34 foizga va aholi bandligini ta‘minlashda-75 foizga yetkazilishi;

b) kamida 600 nafar kichik va o‘rta biznes sub’ektlarining yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ularni “chempion” tadbirkorlarga aylantirilishi;

v)ichimHk va oqava suv, yo‘l, qurilish, kommunal xo‘jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirishi;

g) 100 nafardan ko‘p ishchisi bor tadbirkorlik sub’ektlari sonini 4 mingga yetkazilishi;

d) sanoatni jadal rivojlantirish bo‘yicha loyiha ofislarini tashkil etish hisobiga kamida 100 ta kichik va o‘rta biznes sub’ektlarida brend mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilishi;

e) kichik biznes sub’ektlari ishtirokida kamida 200 ta startap loyihalarning amalga oshirilishi;

j) uzoq muddatli ijaraga berilgan 30 ming gektar ekin yer maydonida yuqori daromadli ekinlarni yetishtirish, 16 ta ixtisoslashgan agrokompaniya faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda 9 ta zamonaviy agrosanoat xo‘jaligini tashkil qilish inobatga olinsin va ijroga qaratilsin.

3.Belgilansinki, Dastur doirasida “chempion” tadbirkorlarga aylantiriladigan tashkilotlar ro‘yxati shakllantirilib, unga quyidagi mezonlarga javob beradigan tadbirkorlik sub’ektlarini kiritiladi:

a) har bir tuman (shahar) da kamida 2 tadan yillik aylanmasi 10 mlrd. so‘mdan yuqori bo‘lgan va 50 tadan ortiq ish o‘rni yaratgan tadbirkorlik sub’ektlari;

b) viloyat hududida yillik aylanmasi 100,0 mlrd. so‘mdan yuqori bo‘lgan va 5 mingdan ortiq ish o‘rnini yaratgan tadbirkorlik sub’ektlari.

v) respublika darajasida - yillik aylanmasi 1 trln. so‘mdan yuqori bo‘lgan va 5 mingdan ortiq ish o‘rnini yaratgan tadbirkorlik sub’ektlari.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (H.Nazarov), tuman soliq bo‘limi boshlig'i (A.Yusupov), O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi boshlig‘i bilan birgalikda, ikki oy muddatda “chempion” tadbirkorlarga aylantiriladigan tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirsin.

-Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha tuman maslahat kengashining tarkibi 1-ilovaga asosan;

-Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha tuman maslahat kengashining asosiy vazifalari 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**

Koson tumani hokimining
2025-yil 30-apreldagi
133-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha tuman maslahat kengashining tarkibi

T/r	F.I.SH	Lavozimi.
1.	A.Boykarayev	Tuman hokimi, Maslahat kengashi raisi.
2.	V.Ismoilov	O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi tuman bo’limi boshlig'i, Maslahat kengashi raisi o‘rinbosari.
3.	Lavozimi bo‘yicha	Sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan “chempion” tadbirkorlar vakili.
4.	Lavozimi bo‘yicha	Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan “chempion” tadbirkorlar vakili.
5.	Lavozimi bo‘yicha	Qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan “chempion” tadbirkorlar vakili.
6.	A.Artikov	Tuman iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, Maslahat kengashi kotibi.

Koson tumani hokimining
2025-yil 30-apreldagi
133-4-60-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha tuman maslahat kengashining asosiy vazifalari.

1.Hududlardagi ustuvor soha va yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadida mahalliy tadbirkorlik sub’ektlari bilan doimiy muloqotda olib borish, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi masalalarni muhokama qilish va natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash.

2.Mahalliy biznesni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish, ularni moliyaviy va infratuzilma jihatdan qo‘llab - quvvatlash bo‘yicha takliflar tayyorlash va ko‘rib chiqish uchun viloyat kengashiga kiritish.

3.Tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab- quvvatlash, yosh va ayol tadbirkorlarni ratbatlantirish, startaplar va innovatsion biznes loyihalarni amalga oshirishga ko‘maklashish.

4.Hududlarda aholini biznesga jalb qilish, yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratish, sanoat, xizmat, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalarini jadal rivojlantirish borasidagi tashabbuslarni ro‘yobga chiqarish.